

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNING MA'NAVIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH MEDODLARI

Matchanov B.O.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
“Maktabgacha ta'lim fakulteti” uslubchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy tarbiyaning amalga oshirishning ahamiyati va bu borada amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalar keltirilgan. Shuningdek ma'naviy tarbiyani amalga oshirish usul, vositalari va metodlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Axloq, ma'naviyat, ma'naviy fazilat, uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi, ma'naviy tarbiya, ta'lim metodlari, ta'lim texnologiyalari.

Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda shaxsning ma'naviy tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadigan eng muhim ijtimoiy institut bu oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti ekanligi ta'kidlanib, u tarbiyalanuvchilarni pedagogik qo'llab-quvvatlash, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga avangard - xorijiy amaliyotlar maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy fazilatlarini shakllantirishda tarbiyachi pedagoglarning xalq pedagogikasi va zamonaviy pedagogikani ilg'or namunalardan foydalanib pedagogik jarayonlarni tashkil etishni ko'rsatadi.

Xalqoro miqyosda shaxsning ma'naviy fazilatlarini shakllanganlik mezonlari va ularning ijtimoiylashuv qobiliyatlarini aniqlash, yangi o'ziga xos imkoniyatlarni kengaytirish ma'naviy fazilatlarni shakllantirishni tizimlashtirish va ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashtirishga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda avvalo bugungi kundagi inson ma'naviyatini o'lchovchi mezonlar asossida maktabgacha yoshdagi bolalar egallashlari zarur bo'lgan fazilatlarni aniqlash va shu vazifalarni amalga oshirishga qodir tarbiyachi pedagoglarning tayyorlashga va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola ma'naviy fazilatlarini namoyon etuvchi muhit yaratishga e'tibor qaratilgan.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. U tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydi.¹

Bu maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaga ma'naviy tarbiya berishning muhimligini ko'rsatadi. Ma'naviy tarbiyani amalga oshirish jarayoni esa juda murakkab va uzoq davom etadigan jarayon.

Kimki go'dakni ko'tarmoqchi bo'lsa, avval unga egilib, qo'lida tutib, keyin yuqoriga ko'taradi. Xuddi shuningdek, kim kimni o'ziga moslashtirmoqchi bo'lsa, avvalo o'zi unga moslashadi. O'zgarishni istamasa, befarq bo'ladi, moslashmaydi. Demak

¹ Pedagogika"ensiklopediya II jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashriyoti. T.: 2015.236 bet.

tarbiyachilar bog'chada bola bilan boladek, maktabda-o'spirindek, institutda yoshlardek gaplashishi kerak.²

Demak maktabgacha yoshdagi bola ma'naviy fazilatlarini shakllantirishni tashkil qilar ekanmiz maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy va psixologik xususiyatlari va imkoniyatlari inobatga olinishi lozim.

T.A.Sarbekova, I.A. Kanevalar, ma'naviyat va axloq murakkab integral shakllanishlardir, deb hisoblab, eng muhim tarkibiy qismlarini quyidagicha ajratib ko'rsatadilar:

- intellektual-kognitiv;
- qiymat-motivatsion;
- xatti-harakatlarning tarkibiy qismlari.³

Ma'naviy tarbiyaning asosi amaliy harakatlarda namoyon bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik jarayonlar tarbiylanuvchilarni fikrlashga o'zi va boshqalar harakatlarini axloqiy oqibatlarini boshqalarga qanday ta'sir ko'rsarishini o'rganishga qaratiladi. Mashg'ulotlar bolaalarga muommolarni hal qilish ko'nikmalarini o'rgatish va ularga axloqiy vazitlarda tanlov qabul qilish, o'z tanlovi oqibatlari haqida o'ylashga imkon berishi kerak.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning (5–7 yosh) ma'naviy fazilatlarini shakllantirishda qo'llaniladigan asosiy metodlar quyidagilardan iborat:

1. Namuna ko'rsatish metodi. Bolalar kattalarga taqlid qilish orqali tez o'rganadi. Tarbiyachi va ota-onaning xulqi, muomalasi, odob-axloqi eng muhim tarbiyaviy vosita hisoblanadi.

2. Suhbat metodi. Axloqiy mavzularda qisqa, tushunarli suhbatlar o'tkaziladi. Masalan: do'stlik, hurmat, yordam berish, halollik haqida.

3. O'yin metodi. Didaktik va rolli o'yinlar orqali bolalarda ijobiy fazilatlar shakllantiriladi. Masalan, "do'stga yordam", "mehmon kutish" kabi o'yinlar.

4. Badiiy adabiyotdan foydalanish. Ertaklar, hikoyalar, she'rlar orqali axloqiy tushunchalar singdiriladi. Qahramonlar xatti-harakati muhokama qilinadi.

5. Rag'batlantirish va baholash metodi. Yaxshi xulq-atvor maqtov, kichik mukofot yoki ijobiy baho bilan mustahkamlanadi. Bu bolani ijobiy harakatga undaydi.

6. Amaliy faoliyat metodi. Bolalarni real hayotiy vaziyatlarga jalb qilish (yordam berish, tartibni saqlash, navbatchilik) orqali fazilatlar mustahkamlanadi.

7. Muammoli vaziyat yaratish metodi. Bolaga kichik axloqiy vaziyatlar berilib, to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatiladi.

8. Xalq og'zaki ijodi va milliy qadriyatlar. Maqollar, topishmoqlar, latifalar va urf-odatlar orqali ma'naviy tarbiya beriladi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ma'naviy fazilatlarini shakllantirish pedagogik jarayonning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu yosh davrida bolalarda axloqiy me'yorlar, ijtimoiy munosabatlar va insoniy qadriyatlar haqidagi dastlabki tasavvurlar faol rivojlanadi. Shu sababli ma'naviy fazilatlarini shakllantirishda suhbat, namuna ko'rsatish, o'yin faoliyati, rag'batlantirish, badiiy adabiyotlardan foydalanish, xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rgatish hamda amaliy faoliyatga jalb etish kabi metodlar samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

² M.Quronov «Ma'rifat texnologiyasi» «MA'NAVIYAT» Toshkent 2018 y. 10 bet

³ Т.А. Серебрякова, И.А. Конева “Экспериментальный подход к изучению духовно-нравственного развития детей среднего дошкольного возраста” Возрастная и педагогическая психология. Национальный психологический журнал № 4(34) 2018.123-с

Mazkur metodlarning tizimli va maqsadli qo'llanilishi bolalarda mehr-oqibat, hurmat, halollik, mas'uliyat, vatanparvarlik va hamjihatlik kabi ijobiy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Ayniqsa, tarbiyachi va ota-onalarning shaxsiy namunasi ma'naviy tarbiyaning eng ta'sirchan omillaridan biri sanaladi. Chunki bolalar kattalarning xatti-harakatlarini kuzatish va ularga taqlid qilish orqali axloqiy me'yorlarni o'zlashtiradilar.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ma'naviy fazilatlarini shakllantirishda pedagogik metodlarning o'zaro uyg'unligi, tarbiya jarayonining izchilligi hamda oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu omillar bolalarda barkamol shaxs sifatlarini rivojlantirishga, ularni kelgusidagi ta'lim va ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pedagogika"ensiklopediya II jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashriyoti. T.: 2015.236 bet.
2. M.Quronov «Ma'rifat texnologiyasi» «MA'NAVIYAT» Toshkent 2018 y. 10 bet.
3. Т.А. Серебрякова, И.А. Конева "Экспериментальный подход к изучению духовно-нравственного развития детей среднего дошкольного возраста" Возрастная и педагогическая психология. Национальный психологический журнал № 4(34) 2018.123-с